

ISSIQXONALARDA CHERRI POMIDOR YETISHTIRISH UCHUN MOS NAV NAMUNALARINI TANLASH

Egamberdiyev Sobir Yo‘ldoshevich
Toshkent davlat agrar universiteti PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada cherri pomidor namunalarning barg soni ham sanab chiqilgan. Issiqxonalarda o‘simlik bargining sonini ahamiyati katta bo‘lib, u fotosintez jarayoni va o‘simlik mahsuldorligiga asosiy omil bo‘lib xizmat qilganligi, hosildorligining ko‘payishi har bir o‘simlikdagi barglar soniga bog‘liq. Kuzatuvlar natijalarga ko‘ra, 62 va 80 kungi kuzatuvlarda namunalar aro farqlanish yuqoriroq bo‘lganligi, issiqxonaning harorati ushbu davrlarda mo‘tadil emasligi va oxirgi 117 kundagi kuzatuv natijalariga ko‘ra, standart navga nisbatan 2 ta namuna Guliver va Quality seed navlari barg soni 14-17 donaga kam ekanligi, qolgan namunalarda esa yuqori ekanligi, ayniqsa Balkonnoye chuda va Balkonniy jeltiy F₁ namunalari standartga nisbatan 22-33 dona barg soni yuqori ekanligi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: cherri, pomidor, issiqxona, fotosintez, harorat, namlik, nav, navmunalar tanlash.

Kirish Bugungi kunda cherri pomidor yetishtirish hajmini ko‘paytirishga talab ortib bormoqda. Shu bois qishloq xo‘jaligi rivojlangan Yevropa mamlakatlari, AQSH, Isroil, Yaponiya, Rossiyada cherri tipidagi mevasi kichik (10-20 g), tashqi ko‘rinishi chiroyli, qizil, sariq, qora, pushti rangli, mazasi shirin yangi navlarni yaratish va yetishtirishni innovatsion texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shunday bo‘lsada bugungi kunda issiqxonalarda cherri pomidorni serhosil, kasalliklarga chidamli nav va duragaylarini o‘rganish, ajratish hamda yetishtirishning innovatsion texnologik elementlarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda tan narhini kamaytirish muxim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi Pomidorni issiqxonalarda cherri tipidagi nav namunalari yetishtirish texnologik elementlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

cherri pomidorni issiqxonalarda nav namunalari qimmatli xo‘jalik belgilari (tezpisharligi, kasalliklarga chidamliligi, hosildorligi, meva sifati) bo‘yicha baholash va istiqbolli navlarni ajratish;

Tadqiqot obekti: **Tadqiqotning obyekti** sifatida cherri pomidorni 10 ta nav namunalari o‘simligi va mevalari, 4 ta o‘sishni boshqaruvchi va 1 ta suv tejovchi moddalar va 4 ta ekish usullari xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari: Issiqxonalarda cherri pomidor yetishtirish uchun mos nav namunalari tanlashning asosi shundaki, bir hududga tavsiya etilgan va o‘zining

yuqori xususiyatlarini ko'rsatgan navlar boshqa hududga mos emasligi yoki yaroqsiz ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Shuning uchun har bir hududda yetishtirishga moslashgan o'zining nav namunalari bo'lish kerak. Bu albatta issiqxonalar turlari va tuzilishi hamda xudud mikroiqlim sharoitlariga bog'liq. Shu sababli Respublikamiz issiqxonalarida cherri pomidor nav namunalari tanlashda ularning yer ustki qismini o'sishi, shoxlanishi, kasalliklarga chidamliligi, ertapisharligi, serhosil va hosil sifati yaxshi bo'lishi kabi ko'rsatkichlari inobatga olinadi.

Tadqiqot natijasida cherri pomidorni 11 ta nav namunalari qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha tajriba olib borildi. Bunda namunalarning yer ustki qismini o'sishi va rivojlanishi bo'yicha o'lchov ishlari olib borildi (3.7-jadvalga, 3-11 rasmga qarang).

Tajribada biometrik o'lchovlar o'tkazildi, bunda o'simlikning asosiy poyasi uzunligi, asosiy poya yaruslari soni va barglar soni aniqlandi. O'lchov ishlari yillar davomida o'rtacha pomidor urug'lari unib chiqqandan to 62, 80 va 117 kun o'tgach hisob-kitob olib borildi.

Uch yillik tadqiqot natijasiga ko'ra, sinalgan duragaylarning asosiy poyasining uzunligi urug'lar unib chiqqandan o'rtacha 62 kun o'tgach, namunalar aro 25-104 sm ni, 80 chi kungi kuzatuvlarda 37 sm dan 220 sm gacha o'sganligi ma'lum bo'ldi. O'simlik o'suv davrining oxirlarida, ya'ni 117 kungi kuzatuv natijalariga ko'ra, namunalar aro 48 sm dan 269 sm gachani tashkil etdi.

Tajribada har uchchala kuzatuvlarda ham asosiy poyaning uzunligi eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan Blek cherri va Krasniy slivovidniy bo'lib, (117 kunda-258-269 sm) standart navga nisbatan 28-39 sm ni va eng kam ko'rsatkichga ega bo'lgan Balkonnoye chuda navi bo'lib, (117 kunda- 48 sm) ni ya'ni standart navga nisbatan 182 sm kalta bo'lganligi aniqlandi. Qolgan duragaylarda esa oxirgi kuzatuvda 221-258 sm gacha o'sganligi ma'lum bo'ldi.

Kuzatuvlarda shu narsa ma'lum bo'ldiki, asosiy poyaning uzunligi, poyadagi yaruslar soniga ham bog'liq bo'ldi. Tajribada asosiy poyaning yaruslari soni ham uchta kuzatuv muddatlarida aniqlandi. Tajriba natijalariga ko'ra, oxirgi kuzatuvda eng ko'p yarus soniga ega bo'lgan Balkonniy jeltiy F₁, Blek cherri va Balkonnoye chuda navlari bo'lib, ular 49-61 donani, standartga nisbatan 10-22 dona yuqori va nisbatan kam yarusga ega bo'lgan Guliver va Quality seed navlari (22-16 dona) kuzatildi. Krasniy slivovidniy navi standart bilan bir xilda bo'lganligi kuzatildi.

Cherri pomidor nav namunalarini issiqxonada yetishtirishda biometrik o'lchov ko'rsatkichlari 2024 y).

Nav namunalari	Asosiy poya uzunligi (sm) kunlarda:			Asosiy poyadagi yaruslar soni (dona) kunlarda:			Barglar soni (dona) kunlarda:		
	62	80	117	62	80	117	62	80	117
Marvarid- standart	83	149	230	7	12	33	10	23	41
Medoviy kaskad	87	155	246	9	14	37	14	25	46
Krasniy slivovidniy	54	166	258	7	16	39	12	29	55
Krasniye busi	100	116	220	8	14	33	13	19	53
Dikovinka	77	127	237	9	19	35	12	21	41
Blek cherri	95	198	269	11	16	49	14	29	52
Balkonnoye chuda	25	37	48	20	36	54	26	65	74
Guliver	104	220	250	9	15	22	14	18	27
Quality seed	96	116	221	7	17	16	9	18	24
1000 N2 pomidorki	79	217	242	10	20	41	15	30	56
Balkonniy jeltiy F ₁	85	146	216	9	27	61	14	36	63

Tajribada oxirgi 80 va 117 kundagi kuzatuvlarda o'simliklarning poya uzunligi va yaruslar sonining farqli ravishda o'zgarib borishiga, cherri pomidorning morfologik va biologik xususiyatlariga bog'likligi hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi kuzatildi.

Cherri pomidor nav namunalarini issiqxonada yetishtirishda fenologik kuzatuvlarni olib borilganda pomidorning asosiy ko'rsatkichlaridan asosiy poyaning o'sishi (sm) bilan o'z navbatida barglar sonining shakllanishi (donaga) ham shunga mos ravishda ortishi kuzatildi va bu ikki asosiy ko'rsatkichlar orasida korrelyatsion bog'liqlikni Dospexov (1979) uslubi bo'yicha hisoblanganda ushbu ko'rsatkichlar orasida o'zaro o'rta darajada ijobiy korrelyatsion bog'liqlik borligi kuzatilib, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0,396$ ($R^2=0,1549$) ga teng bo'lib, o'rta darajada ijobiy bog'lanish mavjudligini ko'rsatdi.

Tanlov nav sinovida cherri pomidor namunalarning barg soni ham sanab chiqildi. Issiqxonalarda o'simlik bargining sonini ahamiyati katta bo'lib, u fotosintez jarayoni va o'simlik mahsuldorligiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Hosildorligining ko'payishi har bir o'simlikdagi barglar soniga bog'liq. Kuzatuvlar natijalarga ko'ra, 62 va 80 kungi kuzatuvlarda namunalar aro farqlanish yuqoriroq bo'ldi. Chunki issiqxonaning harorati ushbu davrlarda mo'tadil emasligi ta'siri bo'ldi. Oxirgi 117 kundagi kuzatuv natijalariga ko'ra, standart navga nisbatan 2 ta namuna Guliver va Quality seed navlari barg soni 14-17 donaga kam ekanligi, qolgan namunalarda esa yuqori ekanligi, ayniqsa Balkonnoye chuda va Balkonniy jeltiy F₁ namunalari standartga nisbatan 22-33 dona barg soni yuqori ekanligi aniqlandi.

Tajribada o'simliklarni barg soni bo'yicha eng yuqori (74 dona) ko'rsatkichga ega bo'lgan Balkonnoye chuda navi pakana bo'yli, asosiy poyasi kalta bo'lganligi bilan ajralib turdi. Issiqxonada barglarning ko'p bo'lishi poyadagi shingillarning erta bahorda quyosh nuridan zararlanishini oldini oladi va meva shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, cherri pomidorni issiqxona sharoitda yetishtirishda yer ustki qismini o'sishi standart navga nisbatan kuchli bo'lgan Blek cherri, Balkonniy jeltiy F₁ va Krasniy slivovidniy nav namunalari ajralib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Авдеев Ю.И. Селекция томатов. – Кишинев: Штиинца, 1982. – 284 с.
- 2.Алпатыев А.В. Помидоры. М., “Московский рабочий”, - 1981. – 302 с.
- 3.Арамов М.Х. Эколого-генетические основы селекции томата на устойчивость к патогенном и адаптивную способность. Автореф. дисс....доктора с-х. наук. СПб., 1994.-48 с.
- 4.Асатова С.С. Влияние регулятора роста тетраила на рост, развитие и урожайность томата и огурца.// Автореф.канд.дисс. Ташкент.ТашГАУ. 1995. С.6-7.
- 5.Брежнев Д.Д. Томаты. – Л.: Государственное издательство сельскохозяйственной литературы, 1955. – 351 с.
- 6.Бўриев Х.Ч, Сабзавот экинлари селекцияси ва уруғчилиги. – Тошкент. Меҳнат, 1999. – Б. 16-25.
- 7.Жуковский П.М. Культурные растения и их сородичи. -3-е изд. Л., «Колос». 1971. - С. 265-272.
- 8.Колмыкова Т.С. Влияние продолжительности обработки семян регуляторами роста на продуктивность сельскохозяйственных растений. // Автореферат на соискание учено степени кандидат сельского хозяйственный наук. – Саратов. СГУ, 2002. – 16 С.